QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI





# QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

***2022- YIL YANVAR-APREL***
***(DASTLABKI MA’LUMOT)***



**Sanoat statistikasi bo‘limi**
**Tel.: 61-222-75-87**

# Qoraqalpog‘iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

*(2022- yil yanvar-aprel oylarida)*

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022- yilning yanvar-aprel oylarida respublika korxonalari tomonidan 5699,6 mlrd. so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 100,4 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 85,4 % ni tashkil etdi.

| 0,3 % | 85,4 % | 13,8 % | 0,5 % |
|---|---|---|---|
| B | C | D | E |
| Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash | Ishlab chiqaradigan sanoat | Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash | Suv bilan ta’minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish |

## Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| B | 10,2 % | 65,6 % |
| C | 114,5 % | 100,8 % |
| D | 136,3 % | 105,2 % |
| E | 85,9 % | 115,6 % |

**Izoh:** *Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

*Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi oʻsishining asosiy omili boʻlib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 0,8 % ga, elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalashning – 5,2 % ga hamda suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yigʻish va utilizatsiya qilish – 15,6 % ga oʻsishi kuzatildi.*

## Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati

**B**

| Yil | Hajmi | Oʻsish |
|---|---|---|
| 2022- yil | 15,2 mlrd. Soʻm | 65,6 % |
| 2021- yil | 13,3 mlrd. soʻm | 10,2 % |
| 2020- yil | 26,7 mlrd. soʻm | 20,6 % |

*Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,2 mlrd. soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,3 % ini tashkil etdi.*

**Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda**

| | 2021- yil | 2022- yil |
|---|---|---|
| B | 0,2 % | 0,3 % |

## Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Ohah tosh, ming t. | 59,3 | 86,8 | 27,5 |







| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Tabiiy gaz, mln. kub.m. | 695,2 | 485,5 | -209,7 |
| Gaz kondensati, ming t. | 34,2 | 26,6 | -7,6 |

## Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so‘m




FHI,% da




*2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4869,9 mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 85,4 % ini tashkil etdi.*




*O‘tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yil yanvar-aprel 1,2 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 63,6 % (68,2 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 3,1 % (2,6 %) va quyi texnologiyalisi – 33,1 % (28,0 %) ni tashkil etdi.*



*Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 63,7 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 96,1 %), oziq-ovqat va ichimliklar ishlab chiqarishning ulushi – 13,1 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 18,8 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 106,9 %), boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,4 % (2021- yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 121,8 %) tashkil etdi.*

**Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati**

*O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*


















2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda 16,9 ming tonna paxta tolasi (2021- yilning mos davriga nisbatan 54,4 % ga), 24,9 ming tonna paxta chigiti (39,4 %), 100,6 ming tonna portlandsement (20,7 %), 1,4 ming tonna tozalangan guruch (20,0 %) ishlab chiqarilib, yuqori oʻsish surʼati kuzatildi. Shuningdek, 43,4 ming tonna yumshoq bugʻdoy va spelta uni (7,0 % ), 1244,8 ming litr aroq (9,6 %), 4,7 ming tonna kalava ip (19,2 % ) va 2,1 ming tonna tozalangan oʻsimlik yogʻi (34,2 %) ishlab chiqarilib, 2021-yilning mos davriga nisbatan pasayishi kuzatildi.

## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| | | | |
| **Aroq, *ming litr 100 % li spirt*** | 1376,4 | 1244,8 | -131,6 |
| **Polietilen, *ming t.*** | 121,7 | 101,2 | -20,5 |
| **Polipropilen, *ming t.*** | 33,0 | 28,8 | -4,2 |
| **Yumshoq bugʻdoy va spelta uni, ming t.** | 46,7 | 43,4 | -3,3 |
| **Paxta tolasi, ming t.** | 10,9 | 16,9 | 6,9 |
| **Oʻsimlik yogʻi (tozalangan), ming t.** | 3,1 | 2,1 | -1,0 |

## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

*2021- yilning yanvar-aprel oylari yakuniga ko‘ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 67,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 116,4 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 63,6 % ni, fizik hajm indeksi 96,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3097,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-aprel oylarida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 117,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 21,8 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 115,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-aprel oylarida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 103,1 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 11,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 6,2 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 572,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-aprel oylarida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,2 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 127,0 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 1,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi esa 97,0 % ni va ishlab chiqarish hajmi 67,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




*Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2021- yil yanvar-aprel oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 119,1 % ni tashkil etgan.*

*Shuningdek, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 17,8 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 0,9 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 865,9 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*

## Kiyim ishlab chiqarish sanoati

*2021- yil yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,6 % ni, fizik hajm indeksi esa 109,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, 2022- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,0 %, fizik hajm indeksi 161,0 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 47,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.*



## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 785,3 mlrd. so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 13,8 % ini) tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-aprel oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 5,2 % ga oshganligi kuzatildi.




## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | 1666,3 | 1977,5 | 311,2 |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | 30,9 | 26,1 | -4,8 |
| **Gazsimon yonilg‘ini quvurlar orqali taqsimlash bo‘yicha xizmatlar, *mln. so‘m*** | 49756,5 | 53512,1 | 3755,6 |

## Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29,2 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ini) tashkil etdi.




### Suv bilan ta’minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-aprel | 2022- yil yanvar-aprel | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Oqova suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar,** *mlrd.so‘m* | 2190,6 | 2396,1 | 205,5 |
| **Xavfsiz chiqindilarni yig‘ish bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 5073,8 | 6208,3 | 1134,5 |
| **Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar,** *mln. so‘m* | 17154,6 | 17810,9 | 656,3 |

O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar – 3,8 % ga, oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar – 9,4 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig’ish bo‘yicha xizmatlar – 22,4 % ga oshganligi kuzatildi.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

*Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 742,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 92,5 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 13,0 % ni tashkil etdi.*

## Oziq-ovqat mahsulotlari

**2021-yil yanvar-aprel** — **66,0 %**

**2022-yil yanvar-aprel** — **66,3 %**

## Nooziq-ovqat mahsulotlar

**2021-yil yanvar-aprel** — **34,0 %**

**2022-yil yanvar-aprel** — **33,7 %**

*Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 9,0 % (2021- yil yanvar-aprel oylari 7,2 %) ni tashkil etdi.*

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 18,1 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 15,7 % ni, To‘rtko‘l tumani 7,7 % ni, Ellikqal’a tumani 7,5 % ni, Beruniy tumani 7,3 % ni, Chimboy tumani 7,1 % ni va Xo‘jayli tumani 7,0 % ni tashkil etdi.*

*Shuningdek, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o‘sish sur’ati respublika o‘sish sur’ati (92,5 %) darajasidan yuqori ko‘rsatkich Shumanay (166,2 %), Qorao‘zak (164,0 %), Mo‘ynoq (116,9 %), Nukus (112,5 %), Chimboy (112,0 %), Ellikqal’a (109,3 %), Kegeyli (105,0 %) hamda To‘rtko‘l (102,5 %) tumanlarida qayd etildi.*

## Shahar va tumanlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 18,1 % ni, shuningdek, Taxiatosh tumani 15,7 % ni, To‘rtko‘l 7,7 % ni, Ellikqal’a tumani 7,5 % ni, Beruniy tumani 7,3 % ni, Chimboy tumani 7,1 % ni, va Xo‘jayli tumani 7,0 % ni tashkil etdi.*




*679,5 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*764,9 mlrd. so‘m*
*2021- yil*

*742,6 mlrd. so‘m*
*2022- yil*




Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi

**2020-yil** **108,5 %**

**2021- yil** **105,7 %**

**2022- yil** **92,5 %**

## Shahar va tumanlar bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

*Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Shumanay tumaniga to‘g‘ri kelib, 14,3 % ni, shuningdek, Ellikqal’a tumani 13,3 % ni, Nukus shahri 11,1 % ni, Beruniy tumani 8,9 % ni, Xo‘jayli tumani 8,7 % ni, To‘rtko‘l tumani 8,2 % ni hamda Chimboy tumani 7,6 % ni tashkil etdi.*

**242,8** mlrd. so‘m
2020- yil

**259,7** mlrd. so‘m
2021- yil

**250,5** mlrd. so‘m
2022- yil




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 — 2020- yil — 111,2 %

02 — 2021- yil — 95,6 %

03 — 2022- yil — 88,6 %



## Shahar va tumanlar bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqa-rilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nukus shahriga to‘g‘ri kelib, 21,6 %, shuningdek, Taxiatosh tumani 21,5 % ni, To‘rtko‘l 7,4 % ni, Chimboy ni 6,9 % ni Beruniy 6,5 % ni, Xo‘jayli 6,2 % ni hamda Amudaryo 5,3 % ni tumanlari tashkil etdi.




*436,7 mlrd. so‘m*
*2020- yil*

*505,2 mlrd. so‘m*
*2021- yil*

*192,1 mlrd. so‘m*
*2022- yil*




Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida oziq- ovqat mahsulotlarining ulushi

01 2020- yil 121,6 %

02 2021- yil 111,7 %

03 2022- yil 95,8 %

## Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududlari kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

*Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Nukus shahri (Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmining 55,6 %), Taxiatosh (13,8 %), To‘rtko‘l (4,6 %), Qo‘ng‘irot (4,1 %), Beruniy (3,8 %) va Amudaryo (3,5 %) tumanlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.*

**Qoraqalpog‘iston Respublikasi**

**2020- yil** — 4433,4 mlrd. so‘m

**2021- yil** — 5504,2 mlrd. so‘m

**2022- yil** — 5699,6 mlrd. so‘m



**2020- yil** — 103,0 %

**2021- yil** — 109,3 %

**2022- yil** — 100,4 %



## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

*Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nukus shahrida (9613,9 ming so‘m) va Taxiatosh tumanida 10378,4 ming so‘m) o‘rtacha Respublika darajasi ko‘rsatkichidan (2919,8 ming so‘m) ancha yuqoriligini ko‘rsatmoqda.*




### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

2020- yil — 2332,0 ming so‘m

2021- yil — 2858,4 ming so‘m

2022- yil — 2919,8 ming so‘m



01 — 2020- yil — 101,5 %

02 — 2021- yil — 107,9 %

03 — 2022- yil — 100,4 %

## Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Respublika bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 380,4 ming so‘m bo‘lgani holda, Taxiatosh tumanida 1540,6 ming so‘mni, Taxtako‘pir tumanida 793,9 ming so‘mni, Shumanay tumanida 730,2 ming so‘mni va Chimboy tumanida 462,5 ming so‘mni tashkil etdi.

### Qoraqalpog‘iston Respublikasi

**2020- yil** — 357,4 ming so‘m

**2021- yil** — 397,2 ming so‘m

**2022- yil** — 380,4 ming so‘m



**2020- yil** — 106,9 %

**2021- yil** — 104,3 %

**2022- yil** — 91,2 %



## Respublikada faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda respublikada 3206 ta sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1544 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 48,2 %) Nukus shahriga 656 tasi (20,5 %), To‘rtko‘l 313 tasi (9,8 %), Amudaryo 300 tasi (9,3 %), Beruniy 275 tasi (8,6 %) tumanlariga to‘gri kelmoqda.




### Jami yangi tashkil etilgan

**2020-yil** — 199 dona

**2021- yil** — 210 dona

**2022- yil** — 263 dona



### Jami faoliyat yuritayotgan

**2020- yil** — 2380 dona

**2021- yil** — 2962 dona

**2022- yil** — 3206 dona